

IBN SINO MEROSIDA KOMIL INSON G‘OYASI VA YOSHLAR AXLOQIY-ESTETIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

*Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand Davlat universiteti
Mustaqil tadqiqotchisi
Xalilova Shaxlo Abdurashitovna*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharq uyg‘onish davrining buyuk namoyandasi Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida asosiy o‘rin tutuvchi komil inson konsepsiyasi ilmiy tahlil etiladi. Tadqiqotda ushbu konsepsiyaning yoshlar axloqiy-estetik madaniyatini shakllantirishdagi nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, zamonaviy globallashuv sharoitida yoshlar tarbiyasida yuzaga kelayotgan muammolar Ibn Sino ta’limoti asosida baholanib, ularni bartaraf etish yo‘llari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Abu Ali ibn Sino, komil inson, axloqiy madaniyat, estetik tarbiya, yoshlar, ma’naviy kamolot, falsafiy ta’limot.

Kirish. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti darajasi, avvalo, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy yetukligi bilan belgilanadi. Axborot texnologiyalarining tez sur’atlar bilan rivojlanishi, madaniy integratsiya jarayonlarining kuchayishi hamda ommaviy madaniyat ta’sirining kengayishi yoshlar dunyoqarashida muayyan ziddiyatlarni yuzaga keltirmoqda. Bu holat, o‘z navbatida, axloqiy qadriyatlarning nisbiylashuvi, estetik didning susayishi va ma’naviy bo‘shliqning kuchayishiga olib kelmoqda. Shu jihatdan qaraganda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllangan Sharq mutafakkirlari merosiga murojaat qilish dolzarb ilmiy vazifaga aylanmoqda. Abu Ali ibn Sino o‘zining ko‘p qirrali ilmiy merosida inson kamoloti masalasiga alohida e’tibor qaratib, komil inson haqidagi yaxlit konsepsiyani ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, insonning mukammalligi faqat bilim bilan emas, balki yuksak axloq va estetik tafakkur bilan belgilanadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, unda Ibn Sino ta’limotidagi komil inson g‘oyasi zamonaviy yoshlar axloqiy-estetik madaniyatini rivojlantirish kontekstida tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

- tarixiy-falsafiy yondashuv orqali Ibn Sino qarashlarining shakllanish manbalari o‘rganildi;
- mantiqiy-tahliliy metod yordamida komil inson konsepsiyasining tarkibiy jihatlari aniqlashtirildi;
- qiyosiy tahlil asosida mutafakkir g‘oyalari zamonaviy tarbiya nazariyalari bilan

solishtirildi;

– tizimli yondashuv orqali axloqiy va estetik tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligi asoslab berildi.

Mazkur metodlar tadqiqotning ilmiy izchilligini ta’minlashga xizmat qildi.

Ibn Sino falsafiy qarashlarida inson muammosi markaziy o‘rinni egallaydi. Mufakkir insonni nafaqat biologik mavjudot, balki aqliy va ma’naviy jihatdan yuksalishga qodir bo‘lgan ijtimoiy shaxs sifatida talqin etadi. Uning ta’kidlashicha, inson kamoloti uch asosiy omil — aql, axloq va estetik idrokning uyg‘un rivoji orqali ta’minlanadi.

Aql insonni ongli faoliyatga yo‘naltiruvchi asosiy kuch bo‘lib, u orqali shaxs borliq mohiyatini anglaydi, xatti-harakatlarini boshqaradi va ma’naviy tanlovlarni qiladi. Ibn Sino axloqiy fazilatlarining shakllanishida aqlning yetakchi rolini alohida ta’kidlaydi. Axloqiy kamolot masalasida mufakkir me’yorni saqlash, nafsni boshqarish, adolat va ezgulik tamoyillariga amal qilishni komil insonning muhim belgisi sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, axloqiy barkamollik jamiyat barqarorligining muhim omilidir.

Ibn Sino qarashlarida estetik madaniyat inson ruhiy olamining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U go‘zallikni tashqi shakl bilan cheklamay, uni ichki uyg‘unlik, axloqiy poklik va ruhiy muvozanat bilan bog‘laydi. Go‘zallikni idrok etish qobiliyati insonning ma’naviy yetukligini belgilovchi mezonlardan biri sifatida talqin etiladi. Mufakkir san’at, musiqa va adabiyotning inson ruhiyatiga ta’sirini yuqori baholab, ularni tarbiya vositasi sifatida e’tirof etadi. Estetik tarbiya axloqiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo‘lib, biri ikkinchisining samaradorligini oshiradi.

Zamonaviy sharoitda yoshlar estetik didining shakllanishi ko‘plab tashqi omillar ta’sirida murakkablashmoqda. Shu bois, Ibn Sino estetik qarashlari yoshlar tarbiyasida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari.

- Ibn Sino ta’limotida komil inson konsepsiyasi yaxlit va tizimli xarakterga ega;
- axloqiy va estetik tarbiya inson kamolotining ajralmas jihati hisoblanadi;
- mufakkir qarashlari zamonaviy yoshlar tarbiyasida muhim metodologik ahamiyatga ega;
- ta’lim tizimida ushbu merosdan foydalanish darajasi yetarli emas.

Mazkur natijalar yoshlar tarbiyasida innovatsion va milliy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokama. Hozirgi davrda yoshlar axloqiy-estetik madaniyatini rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Virtual makon, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat yoshlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatib, ayrim hollarda axloqiy va estetik me’yorlarning buzilishiga olib kelmoqda.

Ibn Sino merosini ta'lim-tarbiya jarayoniga izchil tatbiq etish ushbu salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qilishi mumkin. Komil inson konsepsiyasi yoshlarni ongli hayot pozitsiyasiga, ma'naviy mas'uliyat va estetik tafakkurga yo'naltiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Abu Ali ibn Sino ilmiy merosida ilgari surilgan komil inson g'oyasi yoshlar axloqiy-estetik madaniyatini rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu merosdan samarali foydalanish barkamol, estetik didga ega va ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni tarbiyalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibn Sino A.A. Donishnoma. – Toshkent: Fan, 1980.
2. Ibn Sino A.A. Kitob ush-shifo. – Toshkent: O'zbekiston, 2003.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Jo'rayev N. Ma'naviyat falsafasi. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
5. Xudoyberdiyev B. Sharq mutafakkirlari axloqiy qarashlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.